



**JAVOBGARLIKKA TORTISH MUDDATINING O'TIB KETGANLIGI
SABABLI JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TUSHUNCHASI
VA UNING JINOIY HUQUQIY AHAMIYATI**

**ПОНЯТИЕ ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ УГОЛОВНОЙ
ОТВЕТСТВЕННОСТИ В СВЯЗИ С ИСТЕЧЕНИЕМ СРОКА
РЕАЛИЗАЦИИ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ЕГО УГОЛОВНО-
ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

**THE CONCEPT OF EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY DUE
TO THE EXPIRATION OF THE PERIOD FOR IMPLEMENTATION OF
LIABILITY AND ITS CRIMINAL LEGAL SIGNIFICANCE**

Abdurahmonov Toshmurod Dilmurodjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi 3-o'quv kursi 324-guruh kursanti

Annotatsiya:

ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti, uning mazmun va mohiyati, amalga oshirish shakllari ilmiy tahlil qilingan.

Аннотация:

В статье научно анализируется институт освобождения от уголовной ответственности в связи с истечением срока давности в уголовном законодательстве Республики Узбекистан, его содержание и сущность, формы реализации.

Abstract:

This article scientifically analyzes the institution of exemption from criminal liability due to the expiration of the statute of limitations in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan, its content and essence, and forms of implementation.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

Kalit so‘zlar: jinoyat, jinoiy javobgarlik, mexanizm, muddat, amnistiya, avf, jinoyat tarkibi, huquqiy mezon, aqliy mezon.

Ключевые слова: преступление, уголовная ответственность, механизм, срок, амнистия, помилование, состав преступления, правовой критерий, психический критерий.

Keywords: crime, criminal liability, mechanism, term, amnesty, pardon, elements of the crime, legal criterion, mental criterion.

Jinoyat huquqida muddatning o'tishi deganda, jinoyat qo-nunida belgilangan jinoyat sodir etilganidan so'ng shaxsning javobgarlikka tortilishini istisno qiluvchi muddatning o'tganligi tushuniladi. Jinoyat huquqida belgilangan muddat insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, shaxs butun umri davomida jinoiy javobgarlikka tortilishidan xavfsirab yashamasligi lozim, shuning uchun muddatning o'tishi bilan obyektiv jihatdan sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotmagan bo'lsa-da, javobgarlikka tortish umumiy va maxsus nuqtayi nazardan ma'no va mazmunini yo'qotadi. Muayyan muddatning o'tishi bilan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning noto'g'riligi, shaxs shu davr davomida yangi jinoyat sodir etmasa, u ijtimoiy xavfliligini yo'qotadi yoxud bu ijtimoiy xavf kam ahamiyatli bo'lib qoladi, degan prezumpsiyadan kelib chiqadi. Jinoyat kodeksida u yoki bu jinoyatni sodir etgan shaxsni sodir etilgan jinoyatlar og'irlik darajasidan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'ladigan muddatlar o'tishining to'rt turi mavjud. Jinoyat kodeksining 64-moddasiga muvofiq: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — uch yil; uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab - besh yil; og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o'n yil; o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab (tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar bundan mustasno) — o'n besh yil o'tib ketgan bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi. Bu muddatning jinoyat sodir etilgan kundan boshlab, sud hukmi qonuniy kuchga kirguncha bo'lgan vaqtining o'tishi hisoblanadi. Jinoyatni sodir etish kuni deganda, jinoyat obyektiv tomoniga kiruvchi harakat



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

(harakatsizlik)ning bajarilgan yoki jinoiy oqibat yuz bergan vaqtini tushunish lozim. Formal tarkibli jinoyatlarda qilmishning obyektiv tomoni sodir etilgan vaqtdan boshlab jinoyat tamom bo'lgan hisoblanadi. Bu jinoyatlarni tugallangan, deb topish uchun jinoiy oqibat talab qilinmaydi. Formal tarkibli jinoyatda jinoiy javobgarlikka tortish muddati jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi harakat sodir etilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi (masalan, tuhmat qilish). Moddiy tarkibli jinoyatlarda jinoyat jinoiy oqibat yuz bergan vaqtdan boshlab tamom bo'lgan hisoblanadi (masalan, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish). Har qanday jinoyat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi bilan boshlanadi. Shaxsning ijtimoiy xavfliligi jinoiy harakat (harakatsizlik)ning o'zida ifodalanadi. Shaxs jinoiy qilmishni sodir etgan vaqtdan boshlab ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi faqatgina jinoyatning xususiyatiga emas, balki uning oqibatlariga ham bog'liqdir. Jinoiy qilmishsiz jinoiy javobgarlikning ham vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, u jinoiy oqibatsiz ham ahamiyatga ega hisoblanadi (masalan, jinoyatga suiqasd qilish). Shuning uchun jinoiy qilmish har qanday jinoyatning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, jinoiy oqibat esa, bu jinoyatning ijtimoiy xavfliligini, yetkazilgan zararning miqdorini belgilaydi. Jinoiy javobgarlikka tortish muddatini hisoblash jinoyat ishtirokchilarini javobgarlikka tortishda ham o'ziga xos xususiyatga egadir. Birgalikdagi bajaruvchilar bo'lgani holda sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortish muddatining o'tishi, agar bajaruvchilar jinoyatni birgalikda sodir etishda ishtirok etgan bo'lsa, jinoyat sodir etilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.¹

Jinoiy javobgarlikka tortish muddatini hisoblash, jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar davom etadi. Bu qoida jinoiy javobgarlikka tortish muddatining tugashini belgilaydi. Shaxs belgilangan muddat o'tmasdan, yangi jinoyat sodir etsa, jinoiy javobgarlikka tortish muddati uziladi va har bir jinoyati uchun alohida-alohida hisoblanadi. Shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganda va belgilangan muddat o'tmasdan turib, yangi qasddan jinoyat sodir etsa, muddat uziladi va javobgarlikka tortish muddati yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi (Jinoyat kodeksining 64-moddasi, 4-

¹ Jinoyat huquqi darslik. TDYU, hammualiflar jamoasi, 2019-y. 65-69 b.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

qismi). Jinoiy javobgarlikka tortish muddati agar jinoyat sodir etgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa uziladi. Muddat o'tishining uzilishini asosiy shartlari: jinoyat ishini qo'zg'atilishi bilan bog'liq bo'lib, agar jinoyat ishi qo'zg'atilmagan bo'lsa, odil sudlovdan bosh tortish haqidagi masalaning bo'lishi ham mumkin emas; ayblanuvchining sud va tergovdan bo'yin tovlashi hisoblanadi. Sud va tergovdan bo'yin tovlash deganda, shaxsning jinoiy javobgarlikdan qochish maqsadida qilingan va sud hamda tergov organlarining tegishli hududlarda ayblanuvchini qidirish bilan bog'liq harakatlari tushuniladi. Shaxsni qidirish bilan bog'liq bo'lgan muddat javobgarlikka tortish muddatiga qo'shilmaydi. Muddatning o'tishi aybdor topilgan yoki aybini bo'yniga olib, arz qilgan kundan boshlab hisoblanadi. Bunda shaxs ongli ravishda jinoiy javobgarlikdan bo'yin tovlashga harakat qiladi va qidiruv organlari unga nisbatan maxsus chora-tadbirlar ko'rishga majbur bo'ladilar. Bundan tashqari, qonunda maxsus 25 yillik muddat o'rnatilgan bo'lib, bu muddatning o'tishi bilan shaxs jinoiy javobgarlikdan har qanday sharoitda, shu jumladan, jinoyat sodir etgan shaxsning surishtiruv yoki tergovdan yashiringanligi uchun muddatning uzilishi yoki to'xtatib qo'yilishi yoki og'ir yoxud o'ta og'ir jinoyat sodir etgandan so'ng qasddan yangi jinoyat sodir etgan hollarda ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. O'lim jazosiga mahkum qilinishi mumkin bo'lgan jinoyatni sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish masalasi esa, sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddati o'tishi lozim deb topmasa, o'lim jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlaydi.

Agar shaxs Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismida nazarda tutilgan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan bo'lsa: urashni targ'ib qilish (150-modda); agressiya (151-mod-da); urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda); genotsid (153-modda), yollanish (154-modda); terrorizm (155-modda); milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish (156-modda) kabi jinoyatlarni sodir etgani taqdirda javobgarlikka tortish muddati qo'llanilmaydi.²

Jinoyat-protsesual kodeksining 84-moddasi, 1-qismida shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan bo'lsa, ayblilik masalasi hal qilinmay turib, jinoyat ishi tugatilishi lozimligi belgilangan. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish: dastlabki

² Jinoyat huquqi darslik. TDYU, hammualiflar jamoasi, 2019-y 88-89 b.



tergov davrida — surishtiruv, tergov organlari va prokurorning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori; sud majlisini tayinlash bosqichida esa, sudning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ajrimi bilan tugatiladi. Agar shaxs jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilingandan keyin, javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan taqdirda ayblanuvchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni umumiy tartibda davom ettirish mumkin. Bunday hollarda hukm qish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblovdan hukmi jazo belgilanmasdan chiqariladi.

Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirishni talab qiladigan masalani ko'rib chiqish jiddiy huquqiy masala bo'lib, bu sohada bir qator takliflar va islohotlar mavjud. Mazkur masalaning takomillashuvi uchun quyidagi asosiy jihatlar ko'rib chiqilishi mumkin:

Jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini aniqlashtirish:

Jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari (preskriptsiya muddati) turli jinoyatlar uchun turlicha belgilanishi mumkin. Masalan, yengil jinoyatlar uchun bu muddat qisqa, og'ir jinoyatlar uchun esa uzoqroq bo'lishi kerak. Biroq, jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tkazib yuborilgan taqdirda, jinoyatchilarni jazolashdan voz kechishning asosiy maqsadi jinoyatchilarning vaqt o'tishi bilan jazodan ozod bo'lishi emas, balki jamiyatda adolatni ta'minlashdir. Shu sababli, ba'zi hollarda jinoyatning og'irligi va uning jamiyatga ta'siri bo'yicha alohida muhokama qilish mumkin.

Muddatni uzaytirish yoki to'xtatish imkoniyatlari:

Ba'zi yurisdiksiyalarda preskriptsiya muddati ba'zi holatlarda uzaytirilishi yoki to'xtatilishi mumkin. Masalan, jinoyatni tekshirish yoki tergov qilish jarayonida yangi dalillar topilsa yoki tergov tugallanishi qiyinlashsa, muddatni to'xtatish imkoniyatlari yaratish mumkin. Bundan tashqari, jinoiy javobgarlikka tortish muddati, masalan, jinoyatchi jinoiy faoliyatini yashirishda davom etsa yoki jabrlanuvchi tan olinmasa, uzaytirilishi mumkin.



Jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod qilishning shartlari va chegaralari:

Jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod qilish tizimi, xususan, preskriptsiya muddati o'tkazib yuborilgan holatda, barcha jinoiy harakatlar uchun bir xil yondashuvni talab qilmasligi kerak. Boshqa shartlar va me'yorlarga asoslanib, har bir holat individual ravishda ko'rib chiqilishi lozim. Misol uchun, jiddiy jinoyatlar uchun, agar jinoyat ta'sirini kamaytirish yoki jinoyatchini javobgarlikka tortishning aniq imkoniyati bo'lmasa, bu holatda javobgarlikdan ozod qilishning shartlari boshqa jinoyatlarga nisbatan farq qilishi mumkin.

Adolatni tiklash uchun alternative jazolar:

Jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tkazib yuborilgan jinoyatlar uchun jinoyatchilarga alternative jazolarni ko'rib chiqish mumkin. Bunday jazolar jamiyatga foyda keltirishi mumkin, masalan, rehabilitatsiya dasturlari yoki jamoat ishlarini bajarish kabi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qayta ko'rib chiqilishi: Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tkazib yuborilishi va jinoyatchilarning ozod qilinishi, adolatni qayta tiklash va jinoyatchilarning jamiyatga qaytishi uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Jinoyatning uzoq muddatli ta'sirini inobatga olgan holda, jinoyatlarning oqibatlari hamda jinoiy harakatlarning keng ko'lamli oqibatlari nazorat qilinishi kerak. Yuqoridagi yondashuvlarni hisobga olgan holda, jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tkazib yuborilishi holatlarida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish, jamiyatning manfaatlariga mos ravishda adolatli va samarali tizimni ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024-y.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2024-y.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2024-y.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. TDYU, 2010-y.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. TDYU, 2014-y.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th January, 2025

6. Jinoyat huquqi darslik. TDYU, hammualiflar jamoasi, 2019-y.

7. Jinoyat huquqi darslik. JXU, hammualiflar jamoasi, 2021-y.

FOYDALANILGAN INTERNET RESURSLARI:

1. www.lex.uz
2. www.tsul.uz
3. www.mvdakad.uz
4. www.sud.uz
5. www.insonhuquqlari.uz
6. www.proacademy.uz